

QIPCHOQ SHEVALARIDA MAVJUD AYRIM SO'Z VA IBORALARNING TADQIQI

(Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani misolida)

Matjanov Sherali Ataxanovich

Ajiniyoz nomidagi NDPI O'zbek tili
kafedrasida assistent o'qituvchisi

Rejebova Lola Abdurasul qizi,

Ajiniyoz nomidagi NDPI O'zbek tili va
adabiyoti ta'lim yo'nalishi 3-kurs
talabasi

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyati vakillari uchun tushunarli bo'lgan shevaga xos so'zlarni Surxondaryo shevasi bilan solishtirib o'rganish natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, qipchoq, sheva, ibora, so'zlar, izoh.

O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan farq qiladi. Professor Y.D.Polivanov asrimizning birinchi choragidayoq o'zbek tili o'zining ko'p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida o'zining ilmiy izlanishlarida aytib o'tgan. Qashqadaryo hududida yashovchi aholining ko'pchiligini qipchoqlar tashkil etgani bois ularning shevasi ham o'ziga xosdir. Qipchoq shevasidagi so'zlarning ma'nosi va ularni Surxondaryo shevasida qanday atalishini o'rganib chiqamiz.

Buyum nomlari:

supurgi -shibirtki
tarozi-torozi
g'alvir-g'olbir
choynak -choydish
Lagan- la'li
Pichoq- pichag'
Oftoba- ottaba
Tovoq- toboq
Taxtakach- taxtay
O'qlov- o'xlov
Karavat- chorpuya

O'simlik nomlari:

yalpiz- jolbiz
rayhon- royxon
o'sma- o'sma
shuvit- shibit
piyoz- piyaz
gashnich- gashnish
arpabodyon- orpabodyon
kiyik o't- kiyigo't
isiriq- xazarsufan
boymadron- boymadron
kashnich -kashnish
ismaloq- ismalog'
qoqi- qoqi o't

Qashqadaryo va Surxondaryo (j) lovchi shevalari leksik va fonetik sathida tojik tilining ta'siri sezilib turadi. Bu o'ziga xos shevalar Dehqonobod, Yakkabog',

Boysun, Denov, Sarosiyo tumanlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tojik tilining ta‘siri (o‘) va (i) tovushlarini cho‘zib talaffuz qiladi. Bunga misol qilib quyidagi so‘zlarni olsak bo‘ladi: *jilon, jo‘l, jiyda, jo‘rop, jilamoq, jugurmoq, jig‘ilmoq*. Bu so‘zlarda “O” va „i” tovushlari choziq holda talaffuz qilinadi hamda urg‘u bilan aytiladi.

“Agar zudlik bilan keksa avlod nutqida saqlanib kelayotgan noyob so‘z va iboralar zudlik bilan yig‘ib olinmasa, barcha ma‘suliyatni o‘z zimmgga olib aytamanki, ular hofizasidagi bir qism dialektizmlar umuman yo‘qolib ketishi mumkin”,- degan edi akademik Sh.Shoabdurahmonov¹. Olim aytib o‘tgan fikrlar mutlaqo to‘g‘ri ekanligiga bugun yana bir bor amin bo‘ldim. Qashqadaryo shevasi shu qadar boyki, unda turli xil maqollar, hikmatli so‘zlar va iboralar mavjud. Bulardan bir nechtasini ko‘rib o‘tamiz.

“*Musopirchilikda yo zar joraydi yo zo‘r jorar*”, “Musofir bo‘lmaguncha musulmon bo‘lmiyan”, “Tovga chiqmasang do‘lana qayda, jon kuydirmasang jonona qayda”, “*Uling jeb o‘rga ketar, qizing jeb qirg‘a ketar*”, “*Otangni ko‘rdim Ahmad porig‘, enangni ko‘rdim toboni joriq*”, “*Jeti o‘lchab bir kes*”, “*Ayрилganni ayuv jiydi, bo‘linganni gurki jiydi*”, “*El uvrissiz bo‘lmas, qo‘ton bo‘risiz bo‘lmas*”. Bu maqollarning barchasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turibdi. Qashqadaryo shevasida uchraydigan bir qancha iboralar ham mavjud. „ Zeroki, “Insonning eng dahosi yaratgan hodisalardan eng o‘ziga xosi, eng murakkab va eng mushkuli frazeologiyadir²”. Bu fikrga qo‘shilgan holda qipchoq shevasidagi iboralar bilan tanishamiz va tadqiq etamiz.

Misol uchun: Juda ko‘p ishlab qattiq charchagan insonga qarata-“*oyog‘idan osilmoq*” iborasi ishlatiladi. To‘yda xizmat qilib *oyog‘imdan osildim*.

Juda ko‘p gapirmoq-“*jag‘i ochilmoq*” iborasi. Gulsun momoning jag‘i ochildi.

Ko‘rinishidan odam qo‘rqadigan ya‘ni yuzida farishtasi yo‘q-“*turqi sovuq*”. O‘ktamni turqini sovuqligidan hamma undan uzoq yuradi.

Hammaning og‘zida gap bo‘lib yurmoq-“*to‘prog‘i jengil*” iborasi. “Bizning urug‘ni to‘prog‘i jengil”,-dedi bobom.

Juda xursand bo‘lmoq-“*jo‘lisi bo‘lmoq*” iborasi. Qarindoshlarim meni izlab kelganiga jo‘lim bo‘lib qoldi.

Biror joyga tez borib tez qaytmoq-“*bir oyog‘i bilan borib, ikkinchisi bilan qaytmoq*”. Enam menga zippilab borib kel. Bir oyog‘ing borsin ikkinchisi qaytsin dedi.

¹ <https://m.kun.uz/news/2019/10/02/keksalarning-jamiyatdagi-orni-va-ijtimoiy-faolligi-yanada-oshadigan-bo‘ldi>

² <https://www.dissercat.com/content/vnutrennyaya-forma-somaticheskikh-frazeologicheskikh-edinits-russkogo-yazyka-v-sopostavlenii>

Yo‘q joydan urish chiqarmoq-“*tirnog‘ tagidan kir kovlamoq*” iborasi. Ammam kelib tirnog‘ tagidan kir kovladi.

Aytgan narsasi sodir bo‘lmoq-“*tilida xoli bor bo‘lmoq*”. Uchqunning tilida xoli bor aytgani bo‘lmay qolmaydi.

Eridan ajrashgan ya‘ni turmushi buzilgan ayollarga nisbatan ishlatiladi-“*it tekkan osh*”. Jamilani kelin qilmayman, axir u it tekkan osh-ku.

Tinch bo‘lib turgan oilani tinchini buzmoq-“*tinig‘an suvni loyqalatmoq*”.

- Sen nimaga tinog‘an suvni loyqalatyapsan?

Gap eshitmoq-“*tengini olmoq*”. - Dadasidan tenggimni oldim.

Qattiq qo‘rqmoq-“*Juragi jorilmoq*”. O‘lginda sen juragimni jorib jubarding.

Ahil-inoq bo‘lmoq-“*opog‘- chopog‘ bo‘lmoq*”. Guli bilan opog‘-chopog‘ eding-ku nima bo‘ldi?

Chaqqon, uddaburon insonga nisbatan ishlatiladi-“*tobonidan o‘t chaqnamoq*”. Dildoraning tobonida o‘t chaqnaydi ish qilishini ko‘rsang havasing keladi.

Biror bir xabarni eshitib xursand bo‘lmoq yoki biror bir kishiga yangilikni aytib ko‘ngli yaxlamoq-“*bir qop semirmoq*” iborasi.

- O‘g‘lining unvon olganini eshitib Javlon bir qop semirdi.

Halok qildi-“*boshini jedi*”. Noqobil farzandi uning boshini jedi.

Umidi puchga chiqmoq-“*torbizi qo‘ltig‘idan tushdi*”. O‘ylagan ishi o‘xshamay qolmoq. Umidning torbizi qo‘ltig‘idan tushdi.

Haddan tashqari qiynalib ketmoq-“*ena suti ovzidan kelmoq*” iborasi.

Munovi ishdi qilg‘inimcha ena sutim ovzimdan keldi.

O‘ta ketgan sho‘x insonlarga nisbatan ishlatiladi-“*jerga ursa ko‘kka sapchiydi*”. Maloxatning o‘g‘li jerga ursa ko‘kka sapchiydi.

Ko‘p gapirib boshini og‘ritmoq-“*miyyasini qog‘ib qo‘liga bermoq*”. Ming‘irayverib, ming‘irayverib miyyamni qog‘ib qo‘limga berding.

Nihoyatda bo‘shang insonga nisbatan ishlatiladi-“*qo‘y ovzidan cho‘p omagan*”. Uning eri qo‘y ovzidan cho‘p omag‘an jigitlardan.

Ko‘p azob bermoq-“*boshida jong‘oq chaqmoq*”. Uning qaynonasi boshida jong‘oq chaqdi.

Qaysarlik qilmoq-“*to‘nini teskari kiymoq*” iborasi.

Bo‘ldi endi u to‘nini teskari kiyib oldi endi foydasi yo‘q.

Xulosa qilib shuni aytib o‘tmoqchimanki, qipchoq shevasida olib borgan izlanishlarimdan juda ko‘plab so‘zlarni o‘zim uchun kashf etdim. Bugungi kunda yo‘qolib borayotgan ko‘plab so‘zlarni o‘rgansak, izlanishlar olib borsak shevalarimizdagi so‘zlarning yo‘qolib ketishini bir qadar oldini olgan hisoblanamiz.

Har bir hududning o'ziga xos bir-birini takrorlamaydigan shevasi bor. Har birida bir-birini takrorlamaydigan so'zlar mavjudligi va ularni bir biridan farq qilishi insonni hayratga soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Reshetov V. V. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1978
2. To'ychiboyev B. Hasanov B O'zbek dialektologiyasi. Toshkent 2004
3. Berdiyorov N. Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati.- Toshkent: "O'qituvchi", 1984.
4. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi.- Toshkent. O'qituvchi, 1996. -291
5. Mengliboevna, B. S., & Atakhanovich, M. S. (2021). Phonetic-Lexical Commonity and Characteristics in Uzbek and Karakalpak Literature Text Lexemas. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 10, 6-8.
6. Norov, I., & Xaytbayev, O. (2023). TIL TA'LIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUV. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(9), 65-72.
7. Norov, I. (2023). O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARDA YONDASHUV. Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения, 1(6), 39-43.
8. Sherali, M. (2023). Qoraqalpoq xalq maqollarining ba'zi aksiologik xususiyatlari. Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari, 1(1), 73-76.
9. Norov, I., Yo'ldoshev, J., & Yo'ldoshev, S. (2023). ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 40-47.
10. Матжанов, Ш., & Абдула, И. (2022). O'zbek tilida qo'llaniladigan ayrim maqollarning genetik, leksik-semantik xususiyatlari. Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 82-83.
11. Матжанов, Ш., & Курбанбаев, О. (2022). So'z ichida so'z... Развитие лингвистики и литературоведения и образовательных технологий в эпоху глобализации, 1(1), 100-101.
12. Matjanov, S. (2022). LIRIKADA TABIAT TASVIRI. ZAMONAVIY TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLARI, 1, 19-20.